

FALSAFA TARIXIDA RATSIONALIZM VA IRRATSIONALIZM YONDASHISHLARI TAHLILI

Allanazorov Muxiddin Xayitovich ¹

¹ Axborot texnologiyalari va menejment universiteti

Pedagogika kafedrası mudiri

muhiddinijtimoiy@gmail.com

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received:23.02.2025

Revised: 24.02.2025

Accepted:25.02.2025

KALIT SO'ZLAR:

ratsional, irratsional,
ilm, aql, ong, mistika,,
tasavvuf, iroda, g'oya.

Mazkur maqolada falsafa tarixidan chuqur joy egallagan ratsionalizm va irratsionalizm masalalari tarixi, mazmuni va mohiyati atroflicha tahlil etilgan bo'lib, ularning bir-biriga yondoshishlari va aralashuvi faktlar asosida ochib berilgan. Maqolada antik davr Yunon faylasuflari qarashlari o'rganilib, ularning qay tarzda ratsionalizmdan irratsionalistik masalalarga e'tibor qaratganligi, o'rta asr islom Sharqida bu masalaga qanday qaralganligi va o'rta asr xristianlik olamida ilohiyot asosi sifatida qabul qilinganligi atroflicha tahlil qilinib, ratsionalizm va irratsionalizmning sintezlashuvi va transformatsiyasi isbotlangan.

KIRISH. Ratsionallik va irratsionallik mutanosibligi muammosini tadqiq etishda tarixiy yondashish ushbu kategoriyalar mohiyatini aniqlash, ularning kelib chiqishi va evolyutsiyasini, umuman falsafiy ong evolyutsiyasini tushunish nuqtai nazaridan zarurdir. Bu to'g'rida V.S.Shvrev ratsionallik g'oyasini ko'zda tutib, quyidagi fikrni bildiradi: "Falsafa tarixida ratsionallik g'oyasining vujudga kelishi va evolyutsiyasiga murojaat qilish ushbu fenomenni tahlil qilinishining konseptual madaniyati ko'lamini belgilab beradi, uning mazmunini nohaq chegaralanishi xavfini bartaraf etish, uni keng tarixiy manzara doirasida tadqiq etish, tarixiy shakllari xilma-xilligining birligida ko'rib chiqish imkonini beradi. Ratsionallik muammosiga yetarli darajada jiddiy tarixiy-falsafiy yondashish ratsionallikning zamonaviy shakllarini keng ma'naviy maydon spektrida muayyan imkoniyatlarni amalga

oshirish sifatida talqin etilishiga ko'maklashadi. Bu holda xususiy talqinlarning oldini olib bo'lmaydigan torligi tanqidiy-refleksiv yondashish jarayonida bartaraf etiladigan o'z doirasida haqqoniy, lekin cheklangan insoniy madaniyat tarixida u yoki bu tarzda o'ziga yo'l ochib kelgan va yo'l ochib kelayotgan dunyoga bo'lgan munosabatning shunday turi imkoniyatlarini amalga oshirilishi sifatida namoyon bo'ladi"³¹. Bu fikr, bizningcha, ko'pincha salbiy ma'noda tushuniladigan irratsionallik g'oyasiga ham taalluqlidir. Aslida: "... falsafada ratsionallik irratsionalliksiz mavjud bo'la olmaydi. Borliqning ratsional yoki irratsional qatlamlariga e'tiborsizlik fojiali oqibatlarga olib keladi – bunda nafaqat voqe'likni qashshoqlashtiruvchi noto'g'ri nazariy sxema vujudga keladi, balki universum va insonning undagi tutgan o'rni haqida shak-shubhasiz yolg'on tasavvur shakllanadi. Yaqin o'tmishimizni esga olaylik. Stalin-brejnev mafkurasi ko'p o'ylab o'tirmasdan, osongina irratsionallikni ta'qiqlab qo'ydi va dunyoni qat'iyon ratsional, aniq va shaffof deb hisoblashni buyurdi..."³².

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ushbu maqolada ratsionallik va irratsionallikning quyidagi, N.S.Murdagey tomonidan bildirilgan, eng umumiy va faqat gnoseologik jihatdan kelib chiqqan ta'riflariga asoslanamiz. Ratsionallik, bu – predmet haqida mantiqiy asoslangan, nazariy jihatdan anglangan, tizimlashtirilgan universal bilimdir. U ratsional vositalar, ya'ni tushuncha, gap orqali ifoda etilishi mumkin, boshqalarga uzatilishi mumkin, boshqa sub'ektlar tomonidan qabul qilinishi mumkin.

Irratsionallik ikki ma'noga ega. Birinchi ma'noda irratsionallik shundayki u ratsionalishtirilishi mumkin. Amaliy jihatdan u avvalida izlanayotgan, noma'lum, o'rganilmagan bilish ob'ekti sifatida tasavvur etiladi, ya'ni uni "ratsionallikdan ilgarigi" yoki "hali ratsional bo'lmagan" deb atash mumkin. Ikkinchi ma'noda irratsionallik o'zining mutlaq ma'nosida tan olinadi – o'z-o'zicha irratsional: hech kimsa tomonidan va hech qachon bilib bo'lmaydigan hodisa (Platon "g'oyalari", Shopengauerning "iroda"si)³³.

Ratsionallik va irratsionallik mutanosibliyi muammosi falsafa bilan bir vaqtda paydo bo'ladi. Boshida bu muammo falsafaning (ratsionallikning, reflektiv tafakkurning)

³¹ Швырев В.С. [Рациональность как философская проблема](#) // Рациональность как предмет философского исследования. - М., 1995, С. 3.

³² Мурдагей Н.С. Рациональное и иррациональное – философская проблема (читая А.Шопенгауэра) // Вопросы философии.- 1994.- №9.

³³ Мурдагей Н.С. Рациональное и иррациональное – философская проблема (читая А.Шопенгауэра) // Вопросы философии.- 1994.- №9.

mifologiya, mifologik fikr yuritish bilan kurashi sifatida namoyon bo'ladi. Lekin, bizningcha, bu jarayonni kurash emas, balki mifologiyani ratsionallashtirish deb hisoblash to'g'ri bo'ladi. Tarixiy jihatdan ushbu jarayon falsafaga (ilmiy, ratsional tafakkurga) ega bo'lgan barcha xalqlarga: qadimgi Hindiston, qadimgi Xitoy, qadimgi Yunon va boshqalarga xos bo'lgan.

Shuni ta'kidlash kerakki, "ratsionallik" va "irratsionallik" tushunchalarini ijtimoiy ong shakllari nazariyasi nuqtai nazaridan tadqiq etish katta samara beradi. Chunki madaniy-tarixiy rivojlanish jarayonida, davrga bog'liq ravishda ijtimoiy ongning u yoki bu shaklining ustun turishi kuzatiladi, bu esa individlar dunyoqarashiga, olamni his etishiga bevosita ta'sir etadi.

Shunday qilib, ilk bor ijtimoiy ongda mifologik ong dominant o'rinni egallaydi, bu dominantlik esa o'z navbatida falsafiy (ilmiy) ong, refleksiya bilan almashinadi. Bu jarayon ijtimoiy-iqtisodiy omillarning ta'sir etishi bilan chambarchas bog'langan – quldorlikning vujudga kelishi aqliy mehnatni jismoniy mehnatdan ajralishiga olib keladi. Aqliy mehnat, bu – ratsional fikr yuritishning rivojlanishidir, bu jarayonda mifologik afsonalar o'rnini aqliy "qurilmalar" egallaydi. Lekin, bularning hammasi mifologik tafakkurni yo'qqa chiqarmaydi, u din, xalq madaniyati doirasida o'ziga xos taraqqiy etadi, falsafiy ta'limotlarga u yoki bu jihati bilan ta'sirini ko'rsatdi. Antik ong "... afsonadan logosga qarab, ya'ni yagona va bir butun hissiy-moddiy kosmosdan uni aqliy asoslarda qurishga qarab yo'naldi"³⁴, deb ta'kidlaydi A.F.Losev.

So'ng metafizika va tabiat falsafasi (naturfilosofiya) taraqqiy etadi va bu davrda ratsional tafakkur, ratsionallikning muayyan turi shakllanadi. Shuni aytish kerakki, ratsionallik falsafiy tizimlarda mifologiya elementlari sifatida (unsurlar: olov, havo, suv, yer) mavjud irratsionallikni yo'q qilishga harakat qiladi. Ratsionallik ravnaq topgan bir paytda, uning rivojlanishi sustlashadi va falsafada irratsionallik elementlarining ustun kelishi kuzatiladi. (Bu hodisani shakllangan ratsionallik shakli qandaydir tabiiy hodisalarni tushuntirib beraolmaganligi, bilish jarayoni qiyinchilikka uchrab, tutilib qolishi, ratsionallikning ushbu shakliga o'zgartirish kiritilishi yoki umuman ushbu shaklini o'zgartirish talab etilishi bilan tushuntirish mumkindir). Bunga misol qilib Qadimgi Yunon falsafasini keltirish mumkin, ya'ni uning mumtoz (klassik) davri ellinizm davri bilan almashinganida xuddi shunday holat vujudga keladi. Aristotel entelexiya: harakatga ilk turtki beruvchi Aql, Olamiy aql – sof tafakkur haqidagi ta'limotni ishlab chiqadi. Sof tafakkur voqe'likning (mavjudlikning)

³⁴ Лосев А.Ф. История античной философии. – М.: ЧеРо, 1998, С. 184.

ilk sababchisidir va barcha unga qaytib boradi. Aristotel aqlni oliy darajada baholab, uni ilohiylashtiradi.

Aristoteldan so'ng Qadimgi Yunon falsafasi o'z yo'nalishini o'zgartiradi. Endi uni sub'ekt muammosi juda qiziqtiradi – Epikur, stoik, so'ng neoplatonizm. Ular kosmos, olamiy aql, ruhdan yuqori turuvchi “ilk yakkalik” degan tushuncha haqida ta'limot ishlab chiqishadi. Plotin tomonidan ishlab chiqilgan neoplatonizm ta'limoti “o'z ruhi bilan harakatlanuvchi, aqliy tushunchalar yoki umuman aql yordamida o'zini shakllantiruvchi va nihoyat, bo'linmas hamda mantiqdan yuqori turuvchi birlik, yakkalik sifatlariga ega hissiy-moddiy kosmos jismi haqidadir, ya'ni u kosmosdagi barcha shakllarning oxirgi sohibidir. Boshqacha qilib aytganda, endi navbat afsona dialektikasiga keldi, chunki afsona yagona tirik mavjudot sifatida, avvalambor, maqsadga yo'nalgan tarzda harakat qiluvchi tirik mavjudot ko'rinishida berilgan, tana va ruhning aynanligidir”³⁵. Antik falsafa, bu - afsona va logos dialektikasi, boshqacha qilib aytganda – irratsionallik va ratsionallik dialektikasidir. Falsafa mifologiyaga qarshi kurashmagan, balki afsonadan o'z rivojlanishining asosi sifatida foydalangan, u mifologiyani ratsionallashtirgan.

Qadimgi Yunon falsafasi rivojlanishining yakuniy davrida mutafakkirlar qarashlari neoplatonizm asosida xristian ilohiyotiga yaqinlashib boradi, irratsionallik tusini oladi. Ularning ta'limotlarida hissiy-moddiy kosmos o'rnini kosmosdan yuqori turuvchi, uni yaratuvchi va uni boshqaruvchi mutlaq shaxs egallaydi.

Yuqorida aytilganlardan quyidagi xulosa qilish mumkin: ratsionallik va irratsionallik mutanosibligi nuqtai nazaridan antik falsafasi rivojlanishini Gegelning dialektik triadasiga – tezis-antitezis-sintez – o'xshatish mumkin. Irratsionallik – afsona, mifologiya; ratsionallik – falsafa; ratsionallik-irratsionallik – diniy falsafa, teosofiya.

Yana bir jihatga e'tibor berish lozim. Vilgelm Vindelband o'zining “Falsafa tarixi” asarida (1892): “Ruh monoteizmi yunonlar falsafasining pishgan mevasidir”³⁶, deb ta'kidlaydi. Bu fikr Aristotelning entelexiya – harakatga ilk turtki beruvchi Aql haqidagi ta'limotiga tegishli. Yuqorida qayd etganimizdek, Aristotel tafakkurni ilohiylashtiradi, neoplatonizm falsafaga ilk yakkalik (pervodinoe) tushunchasini (Plotin) kiritadi. Bulardan quyidagi xulosa kelib chiqadi: falsafaning o'zi yakka xudo haqidagi tasavvurni (monoteizm yoki islomiy tavhid) vujudga keltiradi.

³⁵ Лосев А.Ф. История античной философии. – М.: ЧеРо, 1998, С. 182.

³⁶ Виндельбанд В. История философии.- Пер. с нем.- Киев: Ника-Центр, 1997. С. 127.

Va yana bir jihatda to'xtalishimiz lozim: falsafada ratsionallik va irratsionallikning aralashib, qo'shilib ketishi falsafa rivojlanishiga tutrki beradi hamda, shu bilan birga, mistitsizm, germetizm, gnostitsizmlar kabi sof irratsional ta'limotlarning paydo bo'lishi va rivojlanishiga imkon beradi.

Shunday qilib, muammoning falsafiy-tarixiy tahlili tadqiq etilayotgan tushunchalar mazmunlarining muayyan tarixiy davrda ustunlik qilayotgan dunyoqarash, mavjud olam manzarasiga bog'liq ravishda o'zgarishini aniqlashga imkon beradi. Masalan, o'rta asrlarda ijtimoiy ong dominantasi din bo'lgan, ijtimoiy ongning qolgan shakllari diniy tus oladi, din hukmronligi ostida bo'ladi. Lekin, shuni ta'kidlash lozimki, falsafiy fikrning hukmron diniy dunyoqarashga ta'sir etganligi diniy ongning o'zini takomillashtirilishining zaruriy sharti sifatida, ratsional fikr yuritishning muhim ahamiyatini tan olinganligi bilan bog'liq bo'lgan.

Ratsionallik va irratsionallik muammosi o'rta asrlarda, din ijtimoiy ongda dominant o'rinni egallagan paytda yaqqol, ochiq, global tarzda namoyon bo'ldi. Jo'shqin rivojlanayotgan fan mustaqil bo'lishga harakat qiladi. Aynan shu paytda din va fan (diniy e'tiqod va bilim) o'rtasidagi qarama-qarshilik yaqqol namoyon bo'ladi. Bu davrda muammo nafaqat fikrlash tarzi muammosi, balki hayot tarzi muammosi ham edi, chunki, har bir individ dunyoqarashini belgilovchi diniy muammolar majmui bilan chatishgan edi.

Muammoning o'rta asrlardagi holatini (ham Sharqda, ham G'arbda) o'rganish jarayonida quyidagilar kuzatiladi. Jamiyat diniy-intellektual doirasida ikkita lager vujudga keladi – din tomonidan e'lon qilingan Haqiqatni so'zsiz, mulohazasiz qabul qiluvchilar lageri va e'tiqod qilinishi lozim bo'lgan aqidalarni tanqidiy ravishda, aqliy dalillar asosida anglanishini talab etuvchilar lageri. Bular falsafa va fan rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan qarama-qarshi maqsadlarga yo'nalgan metodologik ko'rsatmalar edi³⁷.

Islomning vujudga kelishi va uning O'rta va Yaqin Sharq mamlakatlarida keng tarqalishi turli qadimiy madaniyatlarni o'zida birlashtirgan arab Xalifaligi barpo etilishiga olib keldi. VII-XII asrlarda musulmon Sharqida madaniyat va fanning ravnaq topishi aql va diniy e'tiqod mutanosibligi, demak ratsionallik va irratsionallik mutanosibligi masalasini keltirib chiqardi.

Bu masalaning hal etilishi diniy-falsafiy dunyoqarashning shakllanishi sharoitida ham falsafa va fan uchun, ham musulmon ilohiyoti uchun dolzarb bo'ldi, chunki bu davrda ular shakllanmoqda va shiddat bilan rivojlanmoqda edi. Falsafa va fan namoyandalarining bir

³⁷ Qarang: Мурдагей Н.С. Рациональное и иррациональное – философская проблема (читая А.Шопенгауэра) // Вопросы философии.- 1994.- №9, С. 27.

tomondan, musulmon ilohiyotchilarining ikkinchi tomondan haqiqatga bo'lgan munosabati qarama-qarshi metodologik ko'rsatmalaridan kelib chiquvchi ikki lagerni tashkil etishdi. Shunday qilib ham fan, ham din haqiqatni izlash bilan mashg'ul edi.

O'rta asrlar arab-musulmon falsafasi yirik namoyandalari (Forobiy, Ibn Sino, Beruniy va boshqalar) qarashlarini tadqiq etilayotgan muammo nuqtai nazaridan yuzaki, chuqurlashmasdan ko'rib chiqilganda ham quyidagi xulosaga kelish mumkin. Har bir mutafakkir ratsionallik va irratsionallik mutanosibligi muammosini o'ziga xos hal etgan albatta, lekin, umuman olganda ushbu muammo bilan bog'liq ilmiy nuqtai nazar (pozitsiya), avvalo, ikki haqiqat nazariyasi hamda barcha alloma va mutafakkirlar amal qilishga harakat qilgan, qat'iy va izchil ratsionalizm bilan aniqlangan.

Ibn Ro'shd³⁸(1126-1198) tomonidan ifoda etilgan ikki haqiqat nazariyasi³⁹ qiymati teng bo'lgan ikki haqiqat: diniy va falsafiy, mavjudligiga yo'l qo'yadi, shuningdek olim va mutafakkirlar himoya qilishga harakat qilgan fanning nisbatan mustaqilligini asoslab beradi. Uningcha, falsafiy haqiqat Aristotel asarlarida mavjud; diniy haqiqat esa oddiy inson tushunchalariga moslashtirilgan.

Olimlar, uning fikricha, dinni rad etmaydilar. Chunki, "falsafa dinning yo'ldoshi va emishgan singlisidir"⁴⁰. "Biz aytamiz, falsafaning vazifasi mohiyat yaratuvchi haqida dalillar saqlanishi darajasida, ya'ni yaratilgan narsalar [majmuasi] sifatidagi darajasida (yaratilgan narsalar esa yaratuvchi haqida o'shanda ko'rsatma beradi, qachonki ularning yaratilishi usullari o'rganilsa hamda ularning yaratilishi usullari haqidagi bilimlar qanchalik to'liq bo'lsa, shunchalik yaratuvchi to'g'risidagi bilimlar to'liq bo'ladi) mavjudlikni faqat tadqiq etish va kuzatish bo'lsa hamda agar din mavjudlikni tadqiq etishga undasa va bu ishni amalga oshirishni talab etsa, unda din nuqtai nazaridan bu ishni amalga oshirish yo

³⁸ Ибн Рушд. Рассуждение, выносящее решение, относительно связи между религией и философией. (Пер. А. Сагадеева) http://hedir.openu.ac.ikurshalahaibn_rushd.html.htm#a#a.

³⁹ Ikki haqiqat, falsafiy va diniy haqiqatning farqlanishi, ajratilishi haqidagi ta'limotni belgilovchi atama. Bu ta'limotga ko'ra, falsafadagi haqiqat ilohiyotda yolg'on deb tan olinishi mumkin va buning aksi. Ikki haqiqat to'g'risidagi ta'limot o'rta asrlarda, Aristotel ta'limoti tarqalishi va mutafakkir falsafiy tizimidagi ba'zi fikrlari islom va xristianlik aqidalariga zid ekanligi ma'lum bo'lgan davrda vujudga keladi. Musulmon ilohiyotchilari bilan munozaralarda ikki haqiqat ta'limotiga tayangan eng nufuzli mutafakkirlardan Ibn Ro'shd bo'lgan. 13 asr fransuz averroizmi (Parij universitetida uning rahbari Siger Brabantskiy bo'lgan), ingliz nominalizmi vakillari (Ioann Duns Skot, U. Okkam) bu ta'limotdan kelib chiqishgan. Ta'limot Uyg'onish davrida keng tarqaldi (Pomponassi, averroistlarning Paduya shahridagi maktabi va b.). Ikki haqiqat to'g'risidagi ta'limot rasionalizmning rivojlanishida katta ahamiyat kasb etdi. – www.cultinfo.ru.htm.

⁴⁰ Ибн Рушд. Рассуждение, выносящее решение, относительно связи между религией и философией. (Пер. А. Сагадеева) http://hedir.openu.ac.ikurshalahaibn_rushd.html.htm#a#a. С. 17.

zaruratdir, yoxud maqtovg'a sazovordir"⁴¹. Ana shu yo'sinda Ibn Ro'shd ikki haqiqat – diniy va falsafiy - mavjudligini ta'kidlaydi.

Musulmon faylasuf va ilohiyotchilari (asosan fiqh sohasida) Aristotel davomchilari sifatida izchil ratsionalizm va shuningdek ilmiy tadqiqotlar metodologiyasini rivojlantirdilar. Ularning fikriga ko'ra, ratsionalizm bu – mavjudlikni tadqiq etishda aqlga tayanishdir (ratsional mulohaza). Eng mukammal mulohaza bu dalillar keltirish, isbotlash orqali amalga oshadigan mulohazadir. Isbotlash haqiqatni izlashga yo'nalgan. Isbotlashning turli ko'rinishlari mavjud. Bundan tashqari ilmiy tadqiqotda ilmiy merosdan foydalanish, izchillik, nufuzli alloma va mutafakkirlar fikridan foydalanish kabi usullarni qo'llash tavsiya etilgan.

Ushbu tadqiqot doirasida arab-musulmon fani va falsafasi yutuqlarini batafsil yoritish imkoni bo'lmagani uchun biz taniqli sharqshunoslarning bu boradagi fikriga suyanamiz. Frans Rouzentel o'rta asrlar musulmon Sharqi madaniyatini "bilim tantanasi"⁴² deb ifodalaydi. Rouzentelning vatandoshi va taniqli tadqiqotchi U. Montgomerining "1100-1350 yillar davrida arablar madaniy va intellektual jihatdan evropaliklardan ustun turganlar"⁴³, degan fikri musulmon Sharq madaniyatiga xuddi shunday yuqori baho berganligidan dalolat beradi. Y.A.Frolova o'z asarlarida ushbu sharqshunoslar fikrini asoslab berishga xarakat qilgan⁴⁴.

Umaman olganda o'sha davrda ong muammosi paradigma bo'lgan deb ta'kilash mumkin.

Shunday qilib, ratsionallik va irratsionallik mutanosibligi muammosini hal etilishidagi ilmiy yo'nalish (pozitsiya) ratsionallikni ustuvor deb hisoblab, shu bilan birga irratsionallikni (dinni) inkor etmaydi. Musulmon Sharqida ana shunday ahvol mavjud edi.

Ishonamizki, bu xulosani o'rta asr G'arbiy Yevropaga ham tatbiq etish mumkin. Chunki, yuqorida ta'kidlaganimizdek, u yerda ham averroizm – ikki haqiqat to'g'risidagi ta'limot - tarafdorlari bo'lgan. Ibn Ro'shd (G'arbiy Yevropada – Averroes nomi bilan tanilgan) tomonidan ishlab chiqilgan ikki haqiqat quyidagicha talqin etildi: ikki haqiqat mavjud – falsafiy va ilohiy haqiqatlar, ular bir-biriga zid bo'lgan holatda ham haqiqat bo'lib qolaveradi. Shuningdek, ratsionalizmdan ham fan sohasida, ham ilohiyot sohasida keng foydalanilgan (Foma Akvinskiy – xudo borligini ratsional asoslab berdi).

⁴¹ O'sha joyda, 1-bet.

⁴² Роузентал Ф. Торжество знания. Концепция знания в средневековом исламе. М., 1978.

⁴³ Уотт Монтомери У. Влияние ислама на средневековую Европу. М., 1976. С. 17.

⁴⁴ Фролова Е.А. История средневековой арабо-исламской философии.- М., 1995.

O'rganilayotgan muammoga ilohiyotning munosabatini aniqlash chuqur izlanishlarni talab etadi. Lekin, o'sha davrning Abu Hamid al-G'azzoliy, Ismoil Buxoriy kabi nufuzli ilohiyotchilar qarashlariga tayanib dastlabki xulosalar chiqarish mumkin. Umuman olganda ularning fanga, fanlarni o'rganishga bo'lgan munosabati ijobiy bo'lgan. Bunga Qur'oni Karimning aqldan foydalanish ko'rsatmasini beruvchi «Ey aql egalari, ibrat olingiz!» (LIX, 2 (Hashr surasi 2-oyat)); voqelik haqida qunt bilan mulohaza yuritish ko'rsatmasi mavjud «Axir ular samovot va yer mamlakatlari haqida, Alloh yaratgan narsalar to'g'risida va ajallari yaqinlashib qolgan bo'lishi mumkinligi xususida o'ylamadilarmi?!» (VII, 185 (A'rof surasi 185-oyat)) va boshqa oyatlari asos bo'lgan. Shu bilan birga, ilohiyotning o'zi ham ratsionallashtirilgan edi. Lekin, mutafakkirlar qarashlari shafqatsiz tanqid qilingan, faylasuflarning o'zi esa xudosizlik, e'tiqodsizlikda ayiblandi: "...barcha faylasuflarning, ko'p sonli toifalarining qay biriga mansub bo'lishiga qaramay, bir xil tamg'asi bor edi – e'tiqodsizlik va xudosizlik tamg'asi..."⁴⁵.

Xuddi shunday ahvol o'rta asr Yevropasida ham kuzatiladi. Masalan, quyidagi ta'limotlar: Ikki haqiqat to'g'risidagi ta'limot, Olamning abadiyligi to'g'risidagi ta'limot, Yagona aqlning abadiyligi to'g'risidagi ta'limot, Falsafa bilan shug'ullanish oqibatida hayotda eng yuksak farog'atga etishish haqidagi ta'limot, katolik cherkovi aqidalariga zid bo'lib, ham xristian ilohiyotchi-mutafakkirlari (Bonaventura, Buyuk Albert, Tomas Akvinat) tomonidan tanqid qilindi, ham cherkov hokimiyati tomonidan qoralandi (Eten Tempe dekretlarida, qator universitetlarda Aristotel asarlari va ularga sharh bergan olimlar asralarini taqiqlash).

Shunday qilib, ilohiyot tadqiq etilayotgan muammoni hal etishda ratsionallikni rad etmagan holda, ustunlikni diniy e'tiqodga – irratsionallikka beradi. Aql din aqidalarini asoslab berishi lozim: "Fan – ilohiyot cho'risidir". Demak, din ratsionallikni erkinlikdan mahrum etib, uni faqat Vahiy sirlarini ochish masalasini hal etishga majbur qilib, faoliyatini cheklab qo'ydi, rivojlanishini orqaga tortdi. Lekin, shuni ta'kidlash lozimki, o'rta asrlarda ratsionallik va irratsionallik mutanosibligi din va sxolastikaga bog'liq ravishda o'zgarib turgan (buni o'sha davrda Tertullianning: "bema'ni bo'lgani uchun e'tiqod qilaman" va Avliyo Avgustinning: "tushunish uchun e'tiqod qilaman", degan bir-biriga zid fikrlarning keng tarqalganligi, yoki Tomas Akvinatning ushbu qarama-qarshi mulohazalarni murosaga keltirishga intilishi yaqqol namoyon qiladi). Shuning uchun falsafa tarixining ushbu davri

⁴⁵ Газали. Избавляющий от заблуждения. (Пер. А.В. Сагадеева) // Григорян С.Н. Из истории философии Средней Азии и Ирана (VII-XII вв.). –М.: Изд-во АН СССР, 1960.-Приложения. С. 221.

tadqiq etilayotgan muammo nuqtai nazaridan chuqur, tafsiliy ravishda, xronologik o'rganilishini talab etadi.

Bu muammoga bo'lgan tasavvuf vakillari munosabati o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ular yuqorida qayd etilgan ko'rsatmalarni (diniy e'tiqod va bilimni) bir-biriga zid deb hisoblamaganlar. Ular bu ko'rsatmalarni Allohga yetishish jarayonidagi bosqichlar deb bilishgan.

Tasavvufni chuqur o'rganish islomiy mistitsizmning falsafa va ilmiy bilish rivojlanishidagi rolini aniqlashga imkon beradi. Falsafaning shakllanishiga tasavvufning ta'siri shubha tug'dirmaydi. Uning aql, ratsionalizmdan shubhalanishi (skeptitsizmi) "falsafiy fikrni uyg'otgan, nazariy, falsafiy skeptitsizm haqida, bilish bosqichi, ilmiy bilimning rivojlanishi sifatidagi skeptitsizm haqida fikr yuritishga undagan"⁴⁶. "Tasavvuf irratsionalizmini ratsional tafakkurga qarshi qo'ydi va shu bilan birga ba'zan falsafiy fikr yuritishga yaqinlashib boruvchi diniy hurfikirlik ko'rinishi sifatida namoyon bo'ldi"⁴⁷.

Tasavvuf bevosita kuzatishni, mistik "yorishishni", idrokni birinchi o'ringa qo'yib, ratsional bilish imkoniyatlarini kamsitdi, lekin uni to'laligicha istisno qilmadi. Shunga qaramasdan, al-G'azzoliydan keyingi davrda teosofiya yo'nalishi, ya'ni mistikaviy Allohga yetishishning ratsional falsafa bilan bo'lgan sintezi kuchga kiradi⁴⁸. G'oyaviy jihatdan tasavvuf hech qachon yagona tizimga ega bo'lmagan.

"Shaxsiy fahmlash (tushunish) natijasi sifatidagi olamni mistikaviy tarzda idrok etish mistik kechinmalarning individualligini ko'zda tutadi. Haqiqatga etishish yo'lidan etaklovchi ruhoniylar murabbiylar obro'sini tan olish bilan birga tasavvuf turli "maktablar" mavjudligiga yo'l qo'ydi, ular esa vaqti-vaqti bilan tashkiliy jihatdan shakllanib, tasavvufiy jamoalarga (yo'nalishlarga) aylanib bordi. Bu jamoalar a'zolari uchun mistikaviy tajribani tushunish emas, balki uni amalga oshirish usullari muhim ahamiyat kasb etgan. Yuqori darajada falsafiy tus olgan yo'nalishlardan "teosofiya mistisizmi" hisoblanadi. Uning "Apostoli" (xavoriysi) deb buyuk shayx Ibn Arabiy tan olingan"⁴⁹.

Abu Bakr Muhammad Ibn Arabiy (1165–1240) tasavvufiy tasavvurlarning tartibga solingan tizimini yaratdi, shuning uchun uni hozirgacha "Ash-shayx al-akbar" (buyuk ustoz), deb atashadi.

⁴⁶ Смирнов А.В. Ибн Араби // Большая Российская энциклопедия.- М., 2003.

⁴⁷ O'sha joyda.

⁴⁸ Степанянц М.Т. Философские аспекты суфизма.- М.: Наука, 1987. С.11-12.

⁴⁹ Смирнов А.В. Ибн Араби // Большая Российская энциклопедия.- М., 2003.

Ibn Arabiyning “al-Futuxat al-Makkiyya” va “Fusus al-Hikam” asarlari eng ahamiyatli deb tan olingan, ularning tahlili natijasida tasavvuf falsafasi haqida to‘g‘ri tasavvurga kelish mumkin. Boshqa manbalar (masalan, Jaloliddin Rumiyning mashhur “Ma’naviy Masnaviy”si) allegorik, she’riy tarzda bayon etilib, ularning falsafiy talqinini amalga oshirish murakkabdir.

Ibn Arabiy borliqning yagona boshlang‘ich manbai va ichki “yorishish” orqali bilish haqidagi ta’limotni rivojlantirdi. O‘zining borliqning birligi (vahdat al-vujud) haqidagi ta’limotida “ilohiy bilimda barcha moddiy narsalarning g‘oyalari mavjud, ular undan kelib chiqadi va pirovardida qaytib boradi”, deb ta’kidlaydi.

“Vahdat al-vujud” konsepsiyasi borliqning bir vaqtning o‘zida fenomenal olamga nisbatan transsendentligi (ya’ni fenomenal olam chegaralaridan tashqarisida ekanligi) va unga immanentligini (ich-ichidan xosligi) bildiradi. “Biz o‘zimiz Allohni ifoda etish vositasi, atributimiz (xususiyatimiz). Bizning mavjudligimiz Uning mavjudligining ob’ektivatsiyasi xolos. Mavjud bo‘lishimiz uchun bizga Alloh kerak, biz Unga O‘zini O‘ziga namoyish etishi uchun kerakmiz”⁵⁰.

Ibn Arabiy Allohni oliy yagona mohiyatli Reallik sifatida ikki jihatdan talqin etadi: aniqlab bo‘lmaydigan, g‘oyib, his etilmaydigan va bilib bo‘lmaydigan (botiniy) tabiati nuqtai nazardan hamda o‘ziga o‘xshatib va o‘zining xohishi bilan yaratilgan barcha mavjudotlarda namoyon bo‘luvchi Reallik, ya’ni ravshan, ko‘rinadigan (zohir) shakli nuqtai nazardan talqin etadi. Allohni bilish mutlaqo mumkin emas, inson aqli va tafakkuri Unga yetishaolmaydi. Ibn Arabiy fikriga ko‘ra, borliq - “yagona”, “ilohiy mohiyatning” cheksiz va to‘xtovsiz o‘zgarib turuvchi, Mutlaqning ko‘zgulari rolini ijro etuvchi moddiy olam obrazlarida namoyon bo‘lishidir”⁵¹.

Tasavvuf ratsional bilishni inkor etmagan, lekin shu bilan birga uning imkoniyatlari cheklanganligini ta’kidladi. “Alloh darvozasigacha yetaklab borgunga qadar aql ajoyib va qimmatlidir. Bu darvozaga yetdim deganingda, undan voz kech..., o‘zingni Allohga topshir: endi “qanday qilib” va “nima uchun” degan savollarga javob izlash befoyda”⁵². Ratsional bilimning haqiqatga yetishtiraolmasligi sababi uning nomukammalligida emas, balki, uning yetarli emasligidadir. Bunda ichki his (intuitsiya) zarurdir.

Tasavvufni qiziqtirgan asosiy masala – mutlaq haqiqatni bilish mumkinmi? – ham ijobiy, ham salbiy hal etiladi. Salbiy “yo‘q” javob Alloh – Haqni aql bilan bilib bo‘lmaydiganini

⁵⁰ Шиммель А. Мир исламского мистицизма.- М., 2000. С. 210.

⁵¹ Ибн Араби. Фусус аль-хикам. Цит. по: Степанянц М.Т. Философские аспекты суфизма.

⁵² Степанянц М.Т. Философские аспекты суфизма.- М.: Наука, 1987. С. 30-31.

anglatadi. “Olam o‘z-o‘zidan mavjud emas, u Allohning mavjudligidir, shuning uchun olam Uni hech qachon tushunib yetmaydi. Bu ma’noda Alloh ichki his uchunmi, kuzatish uchunmi noma’lum bo‘lib qoladi, chunki bebaqo boqiyini qamrab ola olmaydi”⁵³.

Tasavvuf gnoseologiyasining o‘ziga xosligi inson o‘z-o‘zini bilish vositasi orqali haqiqatga yetishish ko‘rsatmasi, yo‘nalishi bilan aniqlanadi. Bunda o‘zining shaxsiy fenomenal bo‘lmish “men”ini yo‘q qilish, xotiradan chiqarib tashlash orqali o‘zining haqiqiy mohiyatini ochish, oshkor qilish zarur.

Inson – ichida ilohiylik joylashgan, ilohiylikni saqlovchi mavjudotdir. Insonning johilligi shundan iboratki, u o‘zining yuksak maqsadini esdan chiqarib, hamma yoqdan haqiqatni izlaydi, haqiqat esa uning o‘zida ekanligini bilmaydi. Fenomenal “men”ning “vafoti” haqiqiy bilimga yo‘l ochadi, bu bilimda ob’ekt-sub’ektga bo‘linish yo‘q bo‘lib, borliqning birligi Haqiqatiga yetishiladi.

Ratsionallik va irratsionallik borasida gap ketganda “intuitsiya” tushunchasini ham nazardan chetda qoldirmaslik lozim. Lotin tilidan “intuitsiya” so‘zi tarjimasida “diqqat bilan ko‘rmoq”, ya’ni “mantiqiy mulohaza qilmasdan turib, bevosita haqiqatga yetishish qobiliyati”, degan ma’noni bildiradi. Tabiatshunos o‘z diqqatini uni qamrab turgan tashqi dunyo ob’ekt va hodisalariga qaratadi. Faylasuf o‘zining aqliy nigohini tashqi va ichki dunyolarga qaratib, “qalb qa’rini” o‘rganadi. Mistikaviy intuitsiya “o‘z-o‘ziga sinchiklab, diqqat bilan qarash, tikilish”, o‘z-o‘zini tahlil qilish, o‘z-o‘zini kuzatishga yo‘nalgan.

XULOSA

Yuqorida bayon etilgan fikrlardan quyidagi xulosa kelib chiqadi, har bir tarixiy davr dunyoqarashida, dunyoni his etilishida ratsionallik va irratsionallik mavjuddir, ular olam va insonni qarama-qarshi nuqtai nazardan bilishga yordam beradi. Ularning bir-biri bilan kurashi inson aqli tomonidan o‘zining cheklanganligi va mukammal emasligini, insonning o‘zida bilishning boshqa imkoniyatlari mavjudligini tushunib yetishga olib keladi – makrokosmni bilish faqat mikrokosmga g‘arq bo‘lish orqali tadqiq qilinishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Швырев В.С. [Рациональность как философская проблема](#) // Рациональность как предмет философского исследования. - М., 1995.
2. Мурдагей Н.С. Рациональное и иррациональное – философская проблема (читая А.Шопенгауэра) // Вопросы философии.- 1994.- №9.

⁵³ Ибн Араби. Фусус аль-хикам. Цит. по: Степанянц М.Т. Философские аспекты суфизма.

3. Лосев А.Ф. История античной философии. – М.: ЧеРо, 1998.
4. Виндельбанд В. История философии.- Пер. с нем.- Киев: Ника-Центр, 1997.
5. Ибн Рушд. Рассуждение, выносящее решение, относительно связи между религией и философией. (Пер. А. Сагадеева) http://thedir.openu.ac.il/kurshalahaibn_rushd.html.htm#a#a.
6. Роузентал Ф. Торжество знания. Концепция знания в средневековом исламе. М., 1978.
7. Уотт Монтгомери У. Влияние ислама на средневековую Европу. М., 1976.
8. Фролова Е.А. История средневековой арабо-исламской философии.- М., 1995.
9. Газали. Избавляющий от заблуждения. (Пер. А.В. Сагадеева) // Григорян С.Н. Из истории философии Средней Азии и Ирана (VII-XII вв.). –М.: Изд-во АН СССР, 1960.-Приложения.
10. Смирнов А.В. Ибн Араби // Большая Российская энциклопедия.- М., 2003.
11. Степанянц М.Т. Философские аспекты суфизма.- М.: Наука, 1987. С.11-12.
12. Шиммель А. Мир исламского мистицизма.- М., 2000.
- Алланазаров, М. Х. (2023, June). ТАБОТАБОИЙ ИЛМИЙ-ФАЛСАФИЙ МЕРОСИ ТАШНИФИ. In Creativity and Intellect in Higher Education: International Scientific-Practical Conference (pp. 58-66).
13. ALLANAZAROV, M. THE WAY OF SCIENCE. THE WAY OF SCIENCE Учредители: Издательство Научное обозрение, (10), 46-48.
14. Allanazarov, M. K. (2023). TABOTABOIY QARASHLARIDA DIALEKTIK MATERIALIZM TAHLILI. SCHOLAR, 1(15), 159-165.
15. Khaitovich, A. M. (2023). Ontological and Epistemological Views of Tabatabai. Miasto Przyszłości, 36, 77-83.
16. Allanazarov, M. K. (2019). THE ROLE OF EASTERN AND WESTERN PHILOSOPHY IN POINT OF VIEW ALLAME TABATABAI. Theoretical & Applied Science, (9), 147-150.